SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5-son (5-jild)
2025

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V5I5Y2025

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 5 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

**BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**TAHRIR HAY'ATI:**

*07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

*08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

*09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

*10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

*12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat Gʻaybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), Oʻzbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Joʻrayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom oʻgʻli — yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

*13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

*19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot boʻlimi psixologik xizmat boshligʻi.

*22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Poʻlatovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Boʻtayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

**OAK Roʻyxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari boʻyicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar roʻyxatiga kiritilgan.

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 5-son (May, 2025). - 569 bet.

**MUNDARIJA**

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Qurbonova Margʻuba*
OʻZBEK TILI VA TIL SIYOSATI: TARIXIY EVOLYUTSIYA VA ZAMONAVIY OMMALASHTIRISH VOSITALARI ........ 13-15

*Polvanov Azim Kuchkarovich*
AMIR TEMUR QOʻSHINIDA HARBIY TAʼMINOT VA ASKAR SAFARBARLIGINING MANBALARDA YORITILISHI ........ 16-21

*Esnazarova Zulfiya Baltashovna*
QORAQALPOQLARNING SHAHAR MADANIYATI (1873 – 1924) ........ 22-27

*Axmedov Shaxzod Farxod oʻgʻli*
OʻZBEKISTONDAGI YOSHLAR TASHKILOTLARI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991 – 2017-yillar) ........ 28-36

*Mamajonov Alisher, Alisherov Abduvohid*
IKKINCHI JAHON URUSHI JANG MAYDONLARIDA ANDIJONLIK RAHBAR XODIMLARNING ISHTIROKI ........ 37-43

*Mamasaidov Lutfillo Payzullo oʻgʻli*
XALQ TAʼLIMI SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HAMKORLIK ALOQALARI ........ 44-47

*Asadova Raʼno Baymanovna*
INNOVATIVE APPROACHES TO URBAN PLANNING AND TOURISM INFRASTRUCTURE DEVELOPMENT IN NEW UZBEKISTAN (CASE STUDY OF INDIA'S EXPERIENCE) ........ 48-52

*Esanova Nilufar*
1991-2024 YILLARDA OʻZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANOAT SOHASIDA HAMKORLIGI: NATIJALAR VA ISTIQBOLLAR (HINDISTON VA XITOY MAMLAKATLARI MISOLIDA) ........ 53-56

*Abdugʻaniyev Bekzod Abduvali oʻgʻli*
OʻZBEK XONLIKLARI VA USMONLI DAVLATI HUKMDORI SULTON SULAYMON OʻRTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR ........ 57-64

*Xudoyberdiyev Axrorboy Nabi oʻgʻli*
HUDUDIY YONDASHUV ASOSIDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH: QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA ........ 65-70

*Zokirjanov Mirzohid Shuxrat oʻgʻli*
XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA BOKU NEFT SANOATINING ROSSIYA IQTISODIY HAYOTIDA TUTGAN OʻRNI ........ 71-74

*Xudayberdiyev Utkir Toshmuradovich*
MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHGʻUZOR-BOYSUN-QUMQOʻRGʻON TEMIR YOʻLINING QURILISHI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI ........ 75-80

*Oʻrmonov Husniddin Baxriddin oʻgʻli*
ULUGʻ VATAN URUSHINING DASTLABKI YILLARIDA OʻZBEKISTON SANOATI ........ 81-88

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI


*Urdushev Xamrakul, Sirojiddin Eshanqulov*
MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASTERLARI:
EKSPORTGA YO‘NALTIRILGAN RIVOJLANISH ........ 89-98

*Maxammadaliyeva Muslimaxon Sherali qizi*
MOBIL ILOVALAR ORQALI XIZMAT KO‘RSATISH:
QULAYLIKMI YOKI NAZORAT VOSITASIMI? ........ 99-104

*Xakkulov Akbar Uralovich*
MARKAZIY BANK FOIZ SIYOSATINING BANKLARNING FOIZ RISKIGA TA’SIRI ........ 105-111

*Amonov Mehriddin Oromiddinovich*
TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHQARISHDA RAHBARLIK USLUBI:
AVTOKRATIK RAHBARLAR ........ 112-117

*Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna*
HUDUDLARDA AHOLI SALOMATLIGINI TA’MINLANGANLIK DARAJASINI
BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI ........ 118-125

*Yangiboyev Rustam Berdiyarovich*
TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI ........ 126-131

*Ollanazarov Bekmurod Davlatmuratovich*
DXSH LOYIHALARIDA INVESTITSION KRAUDFANDING MODELIDAN
FOYDALANISH ORQALI INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH VA UNI TURISTIK
XIZMATLAR KO‘RSATISH SOHASIDA QO‘LLASH ISTIQBOLLARI ........ 132-143

*Eshqobilova Nigoraxon, Qurbonova Safiyabonu*
DAVLAT BUDJETINING DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING
NAZARIY ASOSLARI ........ 144-150

*Umronov Eldorbek Sodirovich*
HUDUDLARDA INNOVATSION XIZMATLAR TURLARI RIVOJLANISHINING
EKZOGEN VA ENDOGEN OMILLARI, ULAR TASNIFI VA KO‘RSATKICHLARI ........ 151-159

*Turgunov Jasurbek, Siddikova Farangiz*
OPPORTUNITIES AND PROSPECTS FOR DEVELOPING A GREEN ECONOMY
IN UZBEKISTAN ........ 160-172


## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI


*Ahmedova Dilrabo*
YOSHLARNING MA’NAVIY-AXLOQIY QIYOFASINING SHAKLLANISHIGA TARIXIY
JARAYONLARNING TA’SIRI ........ 173-177

*Raxmatova Xolidaxon Xolikovna*
NAQSHBANDIYLIKDAGI MUROSA FALSAFASIGA OID QARASHLARINING
FALSAFIY TAHLILI ........ 178-184

*Kurbonaliyev Ural Xatamovich*
ZAMONAVIY AXLOQIY INQIROZ SHAROITIDA ABU MUHAMMAD ABDULLOH
DORIMIY MEROSINING YOSHLAR MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISHDAGI ROLI ........ 185-189

*Soipova Mavjuda Karimjanovna*
FAZL IBN AHMAD TA’LIMOTIDA BILISH MASALASI ........ 190-194

*Jabborova Saodat Sattorovna*
MA’NAVIYAT DAVLAT VA JAMIYAT RIVOJLANISHINING ASOSI ........................................... 195-198

*Fayziyev Xurshid Jumayevich*
VOLTER FALSAFIY QARASHLARIDA FRANSIYADA AGRAR MUNOSABATLAR TAHLILI ........................................... 199-204

*Olimova Moxinur Ravshanbek qizi*
YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MA’NAVIYATNING O‘RNI ........................................... 205-208

*Usarkulov Oybek*
O‘ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O‘RTASIDAGI MADANIY, ILMIY-TEXNIKAVIY ALOQALARNING IJTIMOIY AHAMIYATI ........................................... 209-214

*Majidov Sodiqjon Sadullayevich*
IJTIMOIY ZIDDIYATLAR VA IJTIMOIY FALSAFIY TALQINLAR ........................................... 215-218

*Абдуллаева Икбола Мохировна*
КНИГА – КАК ОДИН ИЗ ОСНОВНЫХ ВИДОВ ИСКУССТВА – ИСКУССТВО СЛОВА ..... 219-226

*Yusupova Ranoxon Tolibjonovna*
MUHANDISLIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY- FALSAFIY OMILLARI ........................................... 227-230

*Turabova Sevara Kattaqulovna*
GLOBAL MEHNAT BOZORIDA SOFT SKILLS VA IJTIMOIY ONGNING STRATEGIK INTEGRATSIYASI ........................................... 231-235

*Rustamov Ramz Rizoqulovich*
DESTRUKTIV TARG‘IBOT TA’SIRIDAN HIMOYALANISHDA TANQIDIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH AHAMIYATI ........................................... 236-240

*Aslanov Said Karimovich*
TIZIMLI YONDASHUV VA BOSHQARUV FAOLIYATING O‘ZORO ALOQADORLIGI ........... 241-244

*G‘aniyev Elbek Abdizoitovich*
YOSHLARDA AXLOQIY INQIROZ KUCHAYISHIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING ROLI ........................................... 245-248

*Bozarov Dilmurod Mirzarasulovich*
SINERGETIKANING ONTOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISHDAGI O‘RNI ........................ 249-252

*Ochilova Nigora Ruzimuratovna*
GLOBAL MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHDA XALQARO KUCHLAR BIRLASHUVINING AHAMIYATI ........................................... 253-258

*Azimov Ozod Mamatkulovich*
YOSHLARDA EKOESTETIK DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY ASOSLARI ........................................... 259-264

*Xolmirzayeva Jumagul Xamdamovna*
TARIXIY MANBALARDA YOSH MUTAXASSISLARNI RIVOJLANTIRISH HAQIDAGI QARASHLAR ........................................... 265-271

**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

*Мамбетов Сердар Ахмедович*
СПОСОБЫ ПЕРЕВОДА РУССКИХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ НА КАРАКАЛПАКСКИЙ ЯЗЫК ........................................... 272-280

*Qurbanova Hilola Maqsadbek qizi*
PRACTICAL NEEDS' ANALYSIS OF SOME BILINGUAL STUDENTS ........ 281-288

*Rakhmonova Yulduz Khusanovna*
A HETEROGENEOUS LEGACY:
EXAMINING HEMINGWAY'S STYLE IN HIS LATER YEARS ........ 289-295

*Yakubova Nilufar Egamberganovna*
ESKI O'ZBEK TILIDA TAF'IL QOLIPLI O'ZLASHMALAR ........ 296-301

*Sadullayeva Muxlisa Xamrayevna*
ZAMONAVIY O'ZBEK HIKOYALARIDA BADIIY KONFLIKT MASALASI ........ 302-307

*Shomurodova Shahlo, Axmedjanova Farida*
MARGARET DRABBLENING "THE MILLSTONE" ASARIDAGI NOYOB KO'RINISH ........ 308-311

*Nazarov Sardor Shamurodovich*
A COMPARATIVE STUDY OF THE STRUCTURAL-SEMANTIC
FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK WORD COMBINATIONS ........ 312-315

*Otajonova Dildor Baxtiyarovna*
HAQORAT VA TAHDIDLAR BILAN BOG'LIQ DA'VOLARNI SUD-LINGVISTIK
EKSPERTIZADAN O'TKAZISH ALGORITMI ........ 316-325

*Файзуллина Наргиза Дамировна*
СОВРЕМЕННЫЕ СИНОНИМЫ И ТЕРМИНЫ КОМПЬЮТЕРНО-ИГРОВОГО
СЛЕНГА В РУССКОМ ЯЗЫКЕ ........ 326-331

*Sodiqova Dinora Ilhom qizi*
ANALYSIS OF PRINCIPLES OF CONVEYING FEELINGS CONCERNING LITERARY
TRANSLATION ........ 332-337

*Nazimova Himmatoy*
"DEV" VA "YALMOG'IZ" OBRAZI ETIMOLOGIYASI, KELIB CHIQISHI VA MADANIY
ILDIZLARI TAHLILI ........ 338-342

*Arziqulova Xurshida, Mustanova Shohista*
SHARQ VA G'ARB DRAMATURGIYASI: MADANIY ALOQALAR
VA ILHOM MANBALARI ........ 343-348

*Azizova Feruza Rejavaliyevna*
TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION G'OYALAR VA TEXNOLOGIYALARNI
JORIY QILISH ZAMONAVIY TA'LIMNING BOSH STRATEGIYASI ........ 349-353

*Agzamova Gulrux Ravshan qizi*
XITOY TILIDAGI MUROJAAT ATAMALARINING UMUMIY VA XUSUSIY BELGILARI ........ 354-358

*Sherkulov Sardor Komilovich*
SOCIAL PROBLEMS IN THE WORKS OF THOMAS HARDY:
AN INVESTIGATION OF CLASS INEQUALITY, GENDER AND INDUSTRIALIZATION ........ 359-364

*Rasulov Zubaydullo, G'ayratova Oybegim*
DISKURS — LINGUAPRAMAGMATIK YONDASHUV OBYEKTI SIFATIDA ........ 365-368

*Bozorova Umida Qilichovna*
BADIIY KIRITMALARNI ROSSIYADA O'RGANILISHI ........ 369-372

*Nuriddinova Huriyat Baxtiyorovna*
TOPISHMOQLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI ........ 373-376

*Mamadiyorova Hilola*
TAOM NOMLARINING TARJIMA JARAYONIDA MADANIY TAFOVUTLARNING TA'SIRI ........ 377-384

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

*Abdullayeva Nodira Odil qizi*
OILAVIY (MAISHIY ) ZO'RAVONLIK OMILLARI MAJMUASI ........ 385-393

*Jo'raqulov Javohir Musoqul o'g'li*
TOVLAMACHILIK JINOYATINI AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB SODIR ETISH AMALIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR ........ 394-399

*Otamirzayev Oybek Murodullo o'g'li*
YER OSTI SUVLARINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING PREDMETI VA USULLARI ........ 400-407

*Утебаев Саламат, Калбаева Эльдора*
ВОПРОСЫ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРЕСТУПЛЕНИЕ ХУЛИГАНИЯ В НЕКОТОРЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ ........ 408-413

*Nuriddinov Ismoil O'lmas o'g'li*
BURHONUDDIN MARG'INONIYNING "HIDOYA" ASARIDA JINOYAT VA JAZO MUVOZANATIGA OID AYRIM MASALALAR ........ 414-420

*Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi*
SUN'IY INTELLEKTNING NOTO'G'RI XULOSALARI (GALLYUTSINATSIYALAR): MOHIYATI, SABABLARI VA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ZARURATI ........ 421-432

*Burxonov Shahzod Burxon o'g'li*
XALQARO MEHNAT STANDARTLARI VA MEHNAT SHAROITLARINI TARTIBGA SOLISH ........ 433-438

*Avezov Umidjon Toshpulatovich*
O'ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI TAHLILI ........ 439-446

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

*Максудов Улугбек Курбанович*
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ ФОРМИРОВАНИЯ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ В ИННОВАЦИОННЫХ И СТАРТАП-ПРОЕКТАХ В УСЛОВИЯХ МИРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ........ 447-453

*Lutfillayev Maxmud, Egamberdiyeva Feruza*
SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI, TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI ........ 454-458

*Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich*
O'QUV FAOLIYATI TAMOYILLARIDA INTEGRATIV VA SINERGETIK YONDASHUVLAR 459-463

*Jamolova Gulbadanbegim, Muhammadiyeva Elmera*
TALABALARDA TAHLILIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI ........ 464-468

*Mamajanov Raxmatilla Yakubjanovich*
TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN KOMPLEKS FOYDALANISHNING METODIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 469-478

*Ishonkulov Ashraf Kurbonkulovich*
GLOBALLASHUV SHAROITIDA TA'LIM JARAYONIDA INFORMAL TA'LIM YONDASHUVDAN FOYDALANISH ZAMONAVIY PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA ........ 479-484

*Esboganova Baxit Daribayevna*
UMUMTA'LIM MAKTABLARDA CHIZMACHILIK DARSLARIDA O'QUVCHILARGA AMALIY MASHG'ULOTLAR OLIB BORISH METODIKASI ........ 485-490

*Kamalova Dilnavoz, Amurillayeva Munira*
TEXNOLOGIYA DARSLARINI O'TISHDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI ........ 491-495

*Абдуллаева Дилдора Улугбековна*
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРАВОВЫХ ДИСЦИПЛИН В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ ........ 496-503

*Xamidova Zaynura Ramazonovna*
STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASINING TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHIDA PEDAGOGIK MUAMMOLAR ........ 504-508

*Mustayeva Guldora, Mustayeva Guliston*
SCIENTIFIC FOUNDATIONS OF REFLECTION MECHANISMS IN PEDAGOGICAL ACTIVITY ........ 509-514

*Avazova Munisa*
TA'LIM DIZAYNIDA O'QUVCHILARNING MOTIVATSIYASINI OSHIRISH: GAMIFIKATSIYA VA INTERAKTIV METODLARNING TA'SIRI ........ 515-517

*Abdullayeva Mohigul, Fazlitdinov Muhammadali*
SUN'IY INTELLEKT VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING XXI ASRDAGI ROLI HAMDA ULARNING TURLI SOHALARGA TA'SIRINI O'RGANISH ........ 518-521

*Urinova Dilbar Abdusamat qizi*
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM FAOLIYATINI MODERNIZATSIYA QILISHDA TARBIYACHILARNING OTA-ONALAR BILAN ISHLASHINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI ........ 522-526

*Turdaliyeva Qizlarxon Ilhomjon qizi*
BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISHNING FUNKSIONAL YONDASHUV METODLARI ........ 527-532

*Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li*
BO'LAJAK MUHANDISLARNI TAYYORLASHDA AMALIY MASHG'ULOTLARDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH METODIKASI ........ 533-539

*Suvanova Gulbaxor Baxromovna*
KO'P MILLATLI MAKTABLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR ........ 540-543

*Qarshiyeva Muborak, Karshiyev Jaxongir*
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH ORQALI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI( PIRLS)GA TAYYORLASH USULLARI ........ 544-547

*Djurayeva Nargis Narkulovna*
BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASIDA O'QUVCHILARDA NAFOSAT TARBIYASINING O'RNI ........ 548-552

*Otabayev Iskandar Abdug'aniyevich*
KREDIT-MODUL TIZIMI ORQALI O'QUV REJALARINI ISHLAB CHIQISH VA ULARNI AMALIY TATBIQ ETISH BOSQICHLARI ........ 553-562

*Bozorov Zokir, Ravshanova O'g'ilshod*
BO'LAJAK MATEMATIKA FAN O'QITUVCHILARINING PLANIMETRIYA BO'YICHA KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINING ROLI ........ 563-568

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 5 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 15 April 2025
**Accepted:** 1 May 2025
**Published:** 10 May 2025

*Article / Original Paper*

# INTERNATIONAL LABOR STANDARDS AND REGULATION OF WORKING CONDITIONS

**Burxonov Shahzod Burxon o'g'li**
Master's Student in Mass Media Law
E-mail: shahzodburxonov90@gmail.com

**Abstract.** This article analyzes international labor standards and legal regulations governing working conditions. Special attention is given to the conventions and declarations adopted by the United Nations and the International Labour Organization (ILO), as well as the principles aimed at protecting labor rights at the international level.

**Keywords:** International labor law, working conditions, workers' rights, International Labour Organization (ILO), United Nations, labor legal regulations, discrimination.

# XALQARO MEHNAT STANDARTLARI VA MEHNAT SHAROITLARINI TARTIBGA SOLISH

**Burxonov Shahzod Burxon o'g'li,**
Ommaviy axborot vositalari huquqi magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xalqaro mehnat standartlari va mehnat sharoitlarini tartibga soluvchi huquqiy normativlar tahlil qilinadi. Maqolada, ayniqsa, BMT va Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tomonidan qabul qilingan konvensiyalar va deklaratsiyalar, shuningdek, mehnat huquqlarining xalqaro miqyosda himoya qilinishiga qaratilgan tamoyillar ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Xalqaro mehnat huquqi, mehnat sharoitlari, ishchi huquqlari, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT), BMT, mehnat huquqiy normativlari, diskriminatsiya.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I5Y2025N70

Inson huquqlarining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida mehnat qilish huquqi va uning munosib sharoitlarda amalga oshirilishi zamonaviy huquqiy davlatlar siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Global mehnat bozorida adolatli va xavfsiz mehnat muhitini shakllantirish, ishchilarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, mehnat huquqlari kafolatini ta'minlash maqsadida xalqaro miqyosda qabul qilingan normativ hujjatlar muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) tomonidan ishlab chiqilgan mehnat standartlari ushbu yo'nalishdagi huquqiy tartibga solishning asosiy poydevorini tashkil etadi. Xalqaro mehnat standartlari zamirida inson qadr-qimmatini yuksaltirish, mehnatkashlarning asosiy huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, diskriminatsiya, ekspluatatsiya va majburiy mehnatning oldini olishga qaratilgan yondashuvlar mujassam. Shu bilan birga, ushbu standartlar milliy qonunchilik tizimlariga integratsiyalashuvi, ularning samarali tatbiqi va nazorat mexanizmlarining mustahkamlanishi zamonaviy huquqshunoslik fanining dolzarb ilmiy-tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Mazkur tezisda xalqaro mehnat standartlarining mazmun-mohiyati, ularning mehnat sharoitlarini tartibga solishdagi roli, hamda ularning milliy huquq tizimiga implementatsiyasi jarayonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud xalqaro tajribalar asosida Oʻzbekiston Respublikasida mehnat sharoitlarini yaxshilash boʻyicha ilgʻor huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish masalalari yoritiladi.

Xalqaro mehnat standartlari Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) doirasida ishlab chiqilgan xalqaro-huquqiy me’yorlar boʻlib, ularning asosiy vazifasi mehnat munosabatlarini ijtimoiy adolat, tenglik va inson huquqlari tamoyillari asosida tartibga solishdan iboratdir. XMT 1919-yilda Versal shartnomasining XV qismiga binoan tashkil etilgan boʻlib, bugungi kunga kelib 187 ta davlat a’zo hisoblanadi.

2024-yil holatiga koʻra, XMT tomonidan 190 ta konvensiya va 206 ta tavsiyanoma qabul qilingan. Ular ichida quyidagi 8 ta asosiy konvensiya alohida ahamiyatga ega boʻlib, ular “fundamental” deb tan olingan

Mehnat sohasidagi xalqaro-huquqiy tartibga solish — bu mehnatga oid munosabatlarni, ya’ni mehnatni qoʻllash, uning shartlari, mehnatni muhofaza qilish, ishchilarning individual va jamoaviy manfaatlarini himoya qilish bilan bogʻliq munosabatlarni xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar va davlatlar oʻrtasidagi kelishuvlar (koʻp tomonlama va ikki tomonlama shartnomalar) asosida tartibga solishdir. Xalqaro-huquqiy tartibga solish oʻz ifodasini BMT, XMT (Xalqaro Mehnat Tashkiloti), mintaqaviy davlatlar ittifoqlari tomonidan qabul qilingan hujjatlarda, shuningdek, turli davlatlar oʻrtasida tuzilgan ikki va koʻp tomonlama bitimlarda mustahkamlangan mehnat normalari shaklida topadi[1].

Xususan, 1948-yil 10-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan mashhur Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 23-moddasida shunday deyilgan: “Har bir inson mehnat qilish, ishni erkin tanlash, adolatli va qulay mehnat sharoitlariga ega boʻlish hamda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga ega”[2].

Bundan tashqari, mazkur deklaratsiyada har bir kishining teng mehnatga teng haq olish, adolatli ish haqi bilan ta’minlanish, kasaba uyushmalarini tuzish va ularga a’zo boʻlish huquqlari ham mustahkamlab qoʻyilgan. Shu tariqa, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi mehnat huquqining xalqaro miqyosda tan olingan muhim huquq sifatida e’tirof etilgan ilk xalqaro-huquqiy hujjati boʻlib tarixda muhrlandi.

Mehnat huquqining xalqaro huquq doirasida keyingi rivojlanish bosqichini esa 1966-yilda Nyu-York shahrida qabul qilingan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro pakt tashkil etdi. Ushbu paktning 6-moddasida ishtirokchi davlatlar har bir insonning “Oʻzi erkin tanlagan yoki rozilik bildirgan mehnat faoliyati orqali hayot kechirish imkoniyatiga ega boʻlish huquqini” tan olganliklari qayd etiladi va mazkur huquqni ta’minlash uchun zarur choralar koʻrilishi lozimligi belgilangan[3].

Mehnat munosabatlarini tartibga solishda BMT hujjatlari orasida asosiy manbalar 1966-yilda qabul qilingan “Fuqarolik va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro pakt” hamda “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro pakt” hisoblanadi. Mazkur koʻp tomonlama shartnomalarning oʻziga xos jihati shundan iboratki, ular Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga nisbatan ishchilarga beriladigan huquqlarni yanada kengroq doirada belgilaydi. Bundan tashqari, ayniqsa birinchi hujjatda ushbu paktga kiritilgan normalarga rioya etilishini nazorat qilish mexanizmi ham nazarda tutilgan [10].

Bundan tashqari, mehnat sohasida BMT tomonidan qabul qilingan diskriminatsiyaga qarshi konvensiyalar alohida ahamiyatga ega. Ushbu hujjatlar xalqaro huquqning umumiy qoidalari va tamoyillarini oʻz ichiga olgan boʻlib, mehnat munosabatlarining subyektlari huquqiy maqomining asosini tashkil qiladi va turli davlatlar oʻrtasida mehnat sohasida hamkorlikning huquqiy poydevorini yaratadi.

Xalqaro mehnat huquqining oʻziga xos xususiyati shundaki, u umumiy xalqaro huquq tamoyillarining tatbiq etilishi bilan birga, ushbu sohaga xos boʻlgan mustaqil huquqiy tartibga solish prinsiplari bilan ham ajralib turadi.

Umumiy xalqaro huquq tamoyillari – bu BMT Nizomida, 1970-yildagi Davlatlar oʻrtasidagi doʻstona munosabatlar toʻgʻrisidagi xalqaro huquq tamoyillari Deklaratsiyasida hamda 1975-yildagi Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashining Yakunlovchi Aktida mustahkamlangan asosiy 10 tamoyildir [4].

Mehnat munosabatlarini xalqaro-huquqiy tartibga solish prinsiplari esa 1944-yil 10-mayda qabul qilingan Xalqaro Mehnat Tashkilotining maqsad va vazifalariga doir Filadelfiya deklaratsiyasida oʻz ifodasini topgan. Unga koʻra, quyidagi asosiy prinsiplarga amal qilinadi [5]:

a) Mehnat — bu tovar emas. Mehnatning tovar sifatida qaralmasligi prinsipi 1919-yilda tuzilgan tinchlik shartnomalarining mehnatga oid moddalariga kiritilgan boʻlib, bu gʻoya XIX asr irland iqtisodchisi Jon Kells Ingramning insonparvarlik qarashlari taʼsirida shakllangan. U mehnatni ishchining shaxsiyatidan ajratib boʻlmasligini, ish beruvchi bilan ishchi oʻrtasidagi munosabatlar axloqiy qadriyatlarga asoslanishi lozimligini va bu munosabatlar oddiy tovar oldi-sotdisiga tenglashtirilmasligi kerakligini taʼkidlagan. Mazkur prinsipni Filadelfiya deklaratsiyasiga kiritish tashabbusi aynan AQSh delegatsiyasi tomonidan ilgari surilgan, sababi shundaki, bu prinsip AQSh qonunchiligida — xususan, 1914-yildagi Kleyton qonunida allaqachon mustahkamlangan edi.

b) Soʻz erkinligi va kasaba uyushmalari faoliyati erkinligi — doimiy taraqqiyotning ajralmas shartidir.

c) Dunyoning istalgan nuqtasida mavjud boʻlgan qashshoqlik butun insoniyat farovonligiga tahdid soladi.

d) Muhtojlikka qarshi kurash har bir davlatda izchil va qatʼiy olib borilishi lozim boʻlib, bu borada xalqaro miqyosda uzluksiz va birgalikdagi saʼy-harakatlar amalga oshirilishi kerak. Bunday hamkorlikda ishchilar va ish beruvchilarning vakillari hukumat vakillari bilan teng huquqli tarzda ishtirok etib, erkin muhokama va demokratik qarorlar qabul qilish orqali umumiy farovonlikka erishishga xizmat qiladilar.

1998-yilda Mehnat boʻyicha Xalqaro Tashkilotning (XMT) Mehnat sohasidagi asosiy tamoyillar va huquqlar toʻgʻrisidagi Deklaratsiyasi qabul qilingandan buyon quyidagi tamoyillar keng eʼtirof etilgan asosiy meʼyorlar sifatida shakllandi[10]:

a) birlashish erkinligi va jamoaviy muzokaralar oʻtkazish huquqining amalda tan olinishi;

b) Majburiy mehnatning barcha shakllarini bekor qilish;

v) bolalar mehnatini samarali taqiqlash;

g) mehnat va bandlik sohasida kamsitishlarning oldini olish.

Mazkur tamoyillar Deklaratsiyada “asosiy” (fundamental) deb eʼlon qilingan boʻlib, ular har bir aʼzo davlat tomonidan muayyan XMT konvensiyasini ratifikatsiya qilgan yoki qilmaganidan qatʼiy nazar, tashkilot nizomi va unga ilova qilingan 1944-yilgi Filadelfiya

deklaratsiyasiga qoʻshilganlikning oʻzi bilan bajarilishi shart boʻlgan majburiyatlar sifatida e’tirof etiladi[6].

Tadqiqotchi D.V. Chernyaeva ushbu tamoyillarning tarixiy ildizlarini tahlil qilar ekan, quyidagicha ta’kidlaydi: “Bunday tamoyillar ilk bor 1919-yilgi Versal tinchlik shartnomasining XIII qismining 427-moddasi hamda 1941-yilgi Atlantika xartiyasining 6 va 7-xatboshilarida shakllantirilgan. Keyinchalik, 1944-yilda XMT oʻzining maqsad va vazifalariga doir Filadelfiya deklaratsiyasini tayyorlar ekan, mazkur prinsiplardan bir qismini Versal shartnomasidan olib, ularning shakli va mazmunini ma’lum darajada qayta ishlagan”[7].

Mehnat sohasida insonning eng muhim huquqlaridan biri bu — mehnat qilish huquqi hisoblanadi. Har bir ijtimoiy davlatda inson uchun munosib hayotni ta’minlash va uning erkin rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishda asos boʻlib xizmat qiladigan omil bu — erkin, munosib va kafolatlangan mehnatdir.

1948-yil 10-dekabrda BMT Bosh assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 23-moddasida quyidagi normalar mustahkamlangan:

- Har bir inson mehnat qilish, hech qanday toʻsiqlarsiz, erkin va ixtiyoriy ravishda kasb tanlash huquqiga ega.
- Har bir inson adolatli va qulay mehnat sharoitlariga, shuningdek, ishsizlikdan himoyalanish huquqiga ega.
- Har bir inson, hech qanday kamsitishsiz, teng mehnat uchun teng haq olish huquqiga ega[10].

1966-yildagi BMT Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar toʻgʻrisidagi paktida qonun oldida barcha uchun tenglikni e’lon qilish va diskriminatsiyani taqiqlashdan tashqari, ayniqsa ish haqi tengligi masalasi alohida ta’kidlangan[10].

Mehnat sohasida kamsitishni oldini olish, xalqaro huquqda mehnat va bandlik sohasida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlash uchun zarur shart sifatida tan olinadi. XMTning 2030-yilgacha boʻlgan siyosatining asosiy yoʻnalishlaridan biri — ayollar va qizlarga nisbatan barcha shakldagi kamsitishni bartaraf etishdir[11].

Mehnat sohasida kamsitishni oldini olish, uni oldini olish, taqiqlash va yoʻq qilish boʻyicha eng asosiy choralar 1958-yildagi 111-sonli Konvensiya va 111-sonli Rekomendatsiyada ta’riflangan. Bu tamoyillar, shuningdek, 1962-yildagi 117-sonli Konvensiya va 1947-yildagi 82-sonli Konvensiyada ham oʻz aksini topgan. Xususan, mehnat va bandlik sohasidagi ayollar va erkaklar uchun teng mehnat haqi ta’minlanishi kerakligi haqidagi umumiy tamoyillar 1951-yildagi 100-sonli Konvensiya va 90-sonli Rekomendatsiyada qayd etilgan.

Keyinchalik, oʻziga xos tarzda, oilaviy majburiyatlarga ega shaxslarni kamsitishdan himoya qilish masalasi xalqaro miqyosda alohida muhokama qilindi. Bu sohadagi diskriminatsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish, 1955-yildagi 156-sonli Konvensiya va 165-sonli Rekomendatsiyada — “Erkaklar va ayollar uchun teng muomala va teng imkoniyatlar: oilaviy majburiyatlarga ega ishchilar” masalasiga alohida e’tibor qaratilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi 1992-yilda XMTga a’zo boʻlgan. Bugungi kungacha mamlakat XMTning 40 dan ortiq konvensiyasini, jumladan yuqorida tilga olingan 8 ta asosiy konvensiyaning barchasini ratifikatsiya qilgan. Bu konvensiyalarning milliy qonunchilikdagi aks etishiga quyidagilar misol boʻla oladi: 2023-yil 30-dekabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi

Oʻzbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi XMT konvensiyalariga toʻlaqonli moslashtirilgan. Masalan:

- 3-modda: Mehnat sohasida kamsitish taqiqlanadi;
- 6-modda: Majburiy mehnatga yoʻl qoʻyilmasligi qatʼiy belgilangan;
- 226-modda: Ishlab chiqarishda mehnatni muhofaza qilish talablari qatʼiylashtirilgan;
- 259–262-moddalar: Ish beruvchining xavfsiz mehnatni taʼminlash boʻyicha majburiyatlari belgilangan.

2019-yilda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5815-sonli Farmoni bilan “Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlikni kengaytirish boʻyicha chora-tadbirlar dasturi” tasdiqlangan. Ushbu dastur asosida XMT ekspertlari bilan hamkorlikda 2020–2024-yillarda 3 000 dan ortiq ish beruvchi va HR xodimlar oʻqitildi. XMT va “Cotton Campaign” tashkilotlari 2022-yilda bergan xulosalarga koʻra, Oʻzbekistonda paxtachilik sohasida tizimli majburiy mehnat va bolalar mehnatiga barham berilgan. Bu xalqaro mehnat tarixida muhim burilish sifatida eʼtirof etildi [8].

2023-yilda AQSh Mehnat departamenti tomonidan tuzilgan “Bolalar va majburiy mehnat asosida ishlab chiqariladigan mahsulotlar roʻyxati”dan Oʻzbekiston paxtasi chiqarib tashlandi. 2022-yilda Prezident qarori bilan tashkil etilgan “Mehnat xavfsizligi va salomatligi milliy inspeksiyasi” ish beruvchilarda xavfsiz ish sharoitlarini yaratish boʻyicha 2023-yilda 24 000 dan ortiq tekshiruv oʻtkazgan, 800 dan ortiq holatda qonunbuzarlik aniqlanib, 300 ga yaqin mansabdor javobgarlikka tortilgan[9].

“Xavfsiz mehnat yili” (2023) doirasida Oʻzbekiston boʻylab 70 mingga yaqin xodim ishtirokida mehnat muhofazasi boʻyicha treninglar oʻtkazilgan. Yangi kodeksga muvofiq, 2024-yildan boshlab ishchilar xavfsizligi uchun “Mehnat xavfsizligi fondlari” tashkil etilishi va monitoring mexanizmlarining joriy etilishi belgilandi.

Germaniyada Betriebsrat (ishchi kengashlari) orqali mehnat sharoitlari ustidan nazorat amalga oshiriladi. Shvetsiyada tripartizm modeli asosida ish beruvchi, kasaba uyushmalari va davlat vakillari ishtirokida ish sharoitlari boʻyicha doimiy ijtimoiy muloqot olib boriladi.

Oʻzbekistonda esa 2023-yilgi Mehnat kodeksi asosida ijtimoiy sheriklik mexanizmi huquqiy maqomga ega boʻlib, Kasaba uyushmalari federatsiyasi orqali 2024-yilda 18 tarmoq bitimi va 300 dan ortiq jamoaviy shartnomalar tuzilgan.

Mehnat huquqlari xalqaro huquq tizimida katta ahamiyatga ega boʻlib, ularning asosiy mazmuni insonning mehnat qilish huquqi va bu huquqni himoya qilishga qaratilgan. Insonning mehnat huquqlari har bir davlatda erkin, adolatli va kafolatlangan sharoitda amalga oshirilishi kerak. Buning uchun xalqaro huquqiy hujjatlar, xususan, BMT Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, MXT Deklaratsiyasi va BMT Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar toʻgʻrisidagi Pakt muhim huquqiy asoslarni taqdim etadi. Bu hujjatlar insonlarga mehnat qilishda erkinlik, tenglik va adolatli sharoitlarni taʼminlashni taʼminlashni maqsad qiladi.

XMTning 1998-yilgi Deklaratsiyasi mehnat sohasidagi asosiy tamoyillarni belgilab berdi, jumladan, birlashish erkinligi, majburiy mehnatni taqiqlash, bolalar mehnatini taqiqlash va kamsitishlarga qarshi kurashish kabi prinsiplarni ajratib koʻrsatdi. Shuningdek, xalqaro huquq kamsitishlarni oldini olish, ayniqsa, ayollar va qizlarga nisbatan teng huquqlarni taʼminlashga katta eʼtibor qaratmoqda.

Xalqaro huquq mehnat sohasida barcha shaxslarning teng imkoniyatlarga ega boʻlishini taʼminlashni oʻz oldiga asosiy maqsad qilib qoʻygan. Bu oʻz navbatida ijtimoiy tenglikni taʼminlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash va barcha mehnat resurslarini samarali ishlatishni koʻzda tutadi. XMTning Filadelfiya deklaratsiyasi va boshqa konvensiyalar mehnat va bandlik sohasida global muvozanatni taʼminlashda hal qiluvchi oʻrin tutadi.

Shu bilan birga, xalqaro hamjamiyat mehnat huquqlari boʻyicha harakatlarni kuchaytirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash va kamsitishning oldini olishga doir ilgari surilgan tamoyillarni doimiy ravishda rivojlantirishga intilmoqda. Bu oʻzgarishlar global miqyosda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishishga yordam beradi.

**Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Жандарова П.А. Международно-правовое регулирование трудовых отношений // В сборнике: Молодежь и XXI век - 2018 материалы VIII Международной молодежной научной конференции: в 5 томах. 2018. С. 27.
2. Бриллиантова Н.А. Трудовое право / Бриллиантова Н.А. [и др.]; под ред. О.В. Смирнова. - М.: РГ-Пресс, 2016. С. 506.
3. Гордеев И. А. История становления и развития советского трудового права (1917-1941 гг.): Автореф. дис. ... канд. ист. наук. Курск, 2002. С. 72.
4. Ingram J. K. Work and the workman: an address to the Trades' Union Congress Journal of the Statistical and Social Inquiry Society of Ireland. 1880-1881. P. 109.
5. Hendrickx F.T. Foundations and Functions of Contemporary Labour Law European Labour Law Journal. 2012. Vol. 3. № 2. P. 111.
6. Бекяшев Д.К. Международное трудовое право (публично-правовые аспекты). М.: Проспект, 2013. С. 14-15.
7. Черняева Д.В. Международные стандарты труда (международное публичное трудовое право). М.: КНОРУС, 2010. С. 40.
8. Cotton Campaign. (2022, March 10). Cotton Campaign ends its call for a global boycott of cotton from Uzbekistan. https://www.cottoncampaign.org/news/cotton-campaign-ends-its-call-for-a-global-boycott-of-cotton-from-uzbekistan.
9. Abdurahmonov, Q.X., Umurzakov, B.X. va Abdurahmanov, X.X. (2019). Aholini ijtimoiy muhofaza qilish: oʻquv qoʻllanma. Toshkent, 2009. B.152.
10. Бюллетень Верховного Суда РФ. 1994. № 12.
11. Конвенции и рекомендации, принятые МОТ. 1957-1990. Т. 2. - Женева: Международное бюро труда. 1991. С. 1266-1269.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 5 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).